

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-2

Boshlang'ich ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish.

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Mahmudova Nigora Hikmatovna

Annotatsiya: Ta'limga tashkil etish shakllari deganda, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi. O'qitishning u yoki bu tashkiliy shakli jamoaviy va yakka tartibda o'qitishning har xil ko'rinishda qo'shib olib borilishi, o'qitishda ta'lim oluvchilar mustaqilligining turli darajasi, ta'lim oluvchilarning o'qishga o'qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: O'qitishning rasmiy, norasmiy va virtual shakli, maxsus fanlarni o'qitishda masofaviy shakllari, maxsus fanlarni o'qitish shakllari: ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya, mustaqil ta'lim.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi. Maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllari deganda o'quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun talabalarlar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek, o'quv mashg'ulotlarini tuzilish tarkibi tushuniladi. Kishilik jamiyatining taraqqiyot etish jarayonida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan. Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish usuli keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlarga ega bo'lganligi bois bu usul hozirgacha saqlanib qolgan.

O'rta asrlarga kelib, ta'lim-tarbiya kichik guruuhlar shaklida o'tkazila boshlagan. Chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan davr hisoblangan. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida chex pedagogi Ya.A. Komenskiy sinf-dars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi. Kishilik jamiyatining taraqqiyot etish jarayonida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan. Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish usuli keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlarga ega bo'lganligi bois bu usul hozirgacha saqlanib qolgan. O'rta asrlarga kelib, ta'lim-tarbiya kichik guruuhlar shaklida o'tkazila boshlagan. Chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan davr hisoblangan.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida chex pedagogi Ya.A. Komenskiy sinf-dars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi.

Maxsus fanlarni o'qitishning sinf-dars shakli bu – talabalarning barcha guruuhlarini bir xil sharoitda, yagona didaktik vazifani bajarilishini ta'minlaydigan tashkiliy shaklidir (masalan, o'quv-ishlab chiqarish ustaxonlari, o'quv-ishlab chiqarish sexlari, o'quv xo'jaliklari va h.k.).

Amaliy (laboratoriya) mashg'ulotlari - talabalarga faqat turli xil uskunalar, asboblar, moslamalar bilan ishlashini o'rgatmay, balki o'lcovlar, kuzatishlar natijalarini ishlab chiqishni o'rganish hamda to'g'ri ilmiy xulosalar va umumlashmalar chiqarish imkonini beradi. Ishlab chiqarish jarayoni shakli - didaktik maqsadning anqligi, ta'lim va tarbiya vazifalarining birligi, o'quv materialini to'g'ri tanlash, o'qitish modellarini maqsadga muvofiq tanlash, talabalarning mustaqilligi, darsning tashkiliy anqligi va talabalar ishida xavfsizlikni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Ekskursiya shakli – oliy ta'limga tashkil etishning shunday shakli, u orqali talabalar bevosita ishlab chiqarish sharoitida jihozlar bilan tanishib, texnologik va mehnat jarayonlarini tashkil etishni kuzatib boradi. Ta'lim amaliyotida sinf-dars tizimi keng ko'lamda qo'llanilganligi

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-2

sababli oliy ta'limda maxsus fanlarni o'qitishda ham sinf-dars ta'lim-tarbiya ishining asosiy shakli deb hisoblanadi.

Virtual ta'lim tizimi – bu onlayn kurslarni o'qituvchilar tomonidan tuzish, boshqarish uchun yaratilgan web tizim hisoblanadi. Bunday e-learn sistemalarni ko'pincha "ta'limni boshqarish sistemalari" yoki "virtual ta'lim muhiti" deb ham ataladi. Tizim ta'limiy veb-sayt hamda alohida onlayn kurslarni yaratish instrumental muhiti bo'lib, tizimda kompyuter tarmoqlaridan ta'limda foydalanish nazariyasi va amaliyoti asos qilib olingan. Hozirda Respublikamizdag'i barcha oliy ta'lim muassasalarida ushbu tizimni joriy etilishi, bilim samaradorligini oshishi bilan birga mustaqil ta'lim uchun ham xizmat qilmoqda. Bu tizimni ta'limda qo'llanilishining yana muhim jihatni hozirda o'qitiladigan fan soatlarining ko'p qismi mustaqil ta'limga to'g'ri kelishidadir. Fanni o'zlashtirishni yakuniy bosqichida umumiy test sinovi o'tkazish va bilimni baholash mumkin. Natijada talabani bilim samaradorligi nazorati tizim tomonidan o'z vaqtida amalga oshiriladi. Talaba online elektron ta'lim tizimidan foydalanishi uchun ro'yxatdan o'tishi yoki kursdan mehmon (gost) sifatida ham foydalanishi mumkin.

Masofaviy ta'lim – alohida ta'lim shakli bo'lib, u insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofaviy ta'limning yana bir afzalligi shundaki, unda o'quvchi o'ziga qulay vaqtida va hattoki ishdan ajralmagan holda bilim olishi mumkin. Aynan shunday afzalliliklari tufayli ushbu tizim hozirgi kunda dunyoda keng tarqalgan. Masofaviy o'qitishning maqsadi talabalarning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishslash samaradorligini oshirish – ularni ilmiy fikrlashga o'rgatish, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida faolligini kuchaytirishdan iborat. Bunday faoliyatda masofali o'qitishning ulushi kattadir. Ma'lumki, masofaviy ta'limda o'qitish modeli (birlamchi modeli, ikkilamchi modeli, aralash modeli, konsorsium, franchayzing, validatsiya, uzoqlashtirilgan auditoriyalar va loyihibar), texnologiyalar (keys, korrespondentlik ta'limi, radiotelevizion, tarmoqli va mobil ta'lim), kategoriyalar (sinxron va asinxron) asosiy o'rinn tutadi.

E-learning (Electronic Learning - ingl. iboraning qisqartirilgani) - elektron o'qitish tizimi, elektron o'qitish, masofali o'qitish, kompyuterli o'qitish, tarmoqli o'qitish, virtual o'qitish, axborot va elektron texnologiyalarini qo'llab o'qitish kabi atamalarining sinonimidir.

YUNYESKO mutaxassislari tomonidan berilgan "e-Learning – Internet va multimedia yordamida o'qitish" ta'rifi ham mavjud. Bu mazmunan juda ko'p ma'noni anglatishi mumkin, jumladan:

- shaxsiy kompyuter, mobil telefon, DVD, audio-video, radio-televizorlardan foydalanib elektron materiallar bilan mustaqil ishslash;
- uzoqdagi o'qituvchidan maslahat olish, masofadan muloqot qilish imkoniyati;
- umumiy virtual o'quv faoliyatini yurituvchi foydalanuvchilarning ataqsimlangan jamoasi (ijtimoiy tarmoq)ni yaratish;
- elektron o'quv materiallarni o'z vaqtida kunu-tun yetkazish;
- elektron o'quv materiallari va texnologiyalari, masofali o'qitish vositalari uchun me'yorlar va spetsifikatsiyalar;
- barcha tashkilot rahbarlari va bo'limlari guruqlarining axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish hamda ular tomonidan axborot texnologiyalarini egallashlari, o'zlarining odadagi faoliyatlarinin samaradorligini ko'tarish;

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-2

- innovatsion pedagogik texnologiyalarni egallash va tarqatish, ularni o'qituvchilarga uzatish;
- o'quv veb-ashyolarni rivojlantirish imkoniyati;
- dunyoning ixtiyoriy nuqtasida turib ixtiyoriy vaqtida va ixtiyoriy joyda zamonaviy bilim olish;
- jismoniy imkoniyatlari cheklangan (nogiron) shaxslarga oliv ta'lif olish mumkinligi.

Bugungi kunda oliv ta'lif muassasalarining ta'lif jarayonida ma'ruzalar muhim o'rin egallaydi, chunki talabalar bilimini oshirish zamonaviy ma'ruzalarga bog'liqdir. O'quv materiallari va axborotlarni ma'ruza shaklida uzatish oliv ta'lif tizimida o'kitish metodlaridan asosiysi hisoblanib, ta'lif oluvchilarning egallaydigan bilim, ko'nikma darajalari ularning tayanch bilimlari va yoshiga bog'lik bo'ladi.

Ma'ruza - aniq mavzu bo'yicha o'quv materialini taqdim etishning umumqabul qilingan usuli hisoblanib, unda tizimli, ma'lum ketma-ketlik asosida nazariy xarakterdag'i materiallarni ma'ruzachi (o'kituvchi) tomonidan ta'lif oluvchilar e'tiboriga yetkaziladi. Odatda ko'p ko'rsatkichlari bo'yicha ma'ruza tarzida "ma'lumotni uzatish, yetkazish" eng murakkab metodlardan iri hisoblanadi.

Ma'ruza – bu aniq mavzu bo'yicha ma'lumotlarni ma'ruzachi tomonidan tinglovchilar guruhiga bir maromda yetkazish metodi hisoblanadi. Odatda ma'ruzada tinglovchilar auditoriyasi nofaol qabul qiluvchi sifatida namoyon bo'ladi. Ma'ruza, og'zaki metodlaridan so'zlab berish va tushuntirishdan farqli o'laroq, ancha aniq tuzilgan bo'ladi. Ma'ruzalar, odatda, o'quv dasturining yirik, muhim masalalari yuzasidan o'qiladi. Ma'ruzada o'quv materiali yaxlit va izchillik bilan bayon etiladi, o'zaro bog'langan tushunchalar, qonuniyatlar tizimi ochib beriladi, kursning turli mavzulari orasida ichki bog'lanishlar o'rnatiladi. Kirish ma'ruzalari, sharh ma'ruzalar, rukn ma'ruzalar va xotima ma'ruzalar bo'ladi. Ma'ruza so'zlab berishga qaraganda uzoq davom etadi (u, odatda, butun darsga mo'ljallanadi) va talabalarning yozib borishini (konspekt tuzishini) ko'zda tutadi. Ma'ruzani eshitish so'zlab berishni eshitishga qaraganda qiyinroq, chunki ko'proq diqqat-e'tiborni talab etadi.

Amaliy - laboratoriya mashg'ulotlarni mazmuni va tashkil etish xarakteriga ko'ra qo'yidagi turlarga ajratiladi. Amaliy - laboratoriya mashg'ulotlarni ularning xarakteri jihatidan miqdoriy (miqdorga bog'liq bo'lgan) va sifatiy (sifatga bog'liq bo'lgan) ishlarga bo'lish mumkin. Miqdoriy amaliy-laboratoriya mashg'ulotlar aniq o'lchashlar, hisoblab chiqarishlar, hisoblar bilan bog'liq. Ularning natijalari tekshirilayotgan ob'ekt yoki hodisalardagi miqdoriy bog'lanishlarni ochib beruvchi muayyan kattalik bilan ifodalanadi. Miqdoriy amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarga quyidagilar misol bo'la oladi: maydalangan tuproqning sifat ko'rsatkichlarin aniqlash; ekish mashinalarida urug' sarfini aniqlash; kultivator ishchi organlarini sozlash va hokazo. Sifatiy amaliy-laboratoriya mashg'ulotlar davomida talabalar xulosalar qiladilar, qonuniyatlarni aniqlaydilar, bilimlarini chuqurlashtiradilar; ularda zarur ko'nikmalar hosil bo'ladi. Sifatiy amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarga quyidagilar misol bo'la oladi: metallarni cho'zilashga sinash; bajariladigan ishniig turiga qarab keskichlar tanlash; har xil dastgohlar va mashinalarning tuzilishini o'rganish va xokazo. Maxsus fanlardan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari frontal va nofrontal o'tkazilishi mumkin.

Frontal amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarda guruhdagi barcha talabalar bir tipdag'i jihozlarda yakka-yakka bo'lib yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlab, bir xil topshiriqni bajaradilar.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-2

Nofrontal amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarda talabalar kichik guruhlarga bo'linnib har xil mashqlarni bajaradilar yoki har xil jihoz va moslamalarda ishlaydilar.

Laboratoriya (lotinchadan "laboro"- ishlayman) - ilmiy muassasa, vazirlik, korxona, ta'lim muassasasi tarkibidagi ilmiy, o'quv-ishlab chiqarish yoki o'quv mashg'ulotlari olib boruvchi mustaqil muassasa yoki bo'lim, bo'linma hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida laboratoriya uch turga ajratiladi: o'quv laboratoriya (ayrim o'quv fanlaridan) - talabalar bilan laboratoriya mashg'ulotlari olib boriladi; ilmiy-tadqiqot laboratoriysi - asosiy fanlar bo'yicha yirik ilmiytexnikaviy izlanish masalalari hal qilinadi; soha laboratoriysi - ishlab chiqarishning muayyan tarmog'idagi dolzARB masalalar hal etiladi. Ta'lim muassasalarida o'qitishning moddiy - texnik bazasi yaxshi tashkil etilgan taqdirdagina yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash imkoniyati tug'iladi. O'qitishning boshlang'ich davri uchun juda muhim hisoblangan ta'lim oluvchilar guruhining ishlab chiqarish sharoiti yaratilgan o'quv laboratoriyasida mas'ul o'qituvchi nazoratida ishlashini ta'minlovchi me'yordi o'quv jarayonini tashkil etish juda qiyin, ba'zan esa ikoniyat ham bo'lmaydi. SHu sababli ta'lim muassasasining o'zida ham, korxonalarda ham yaxshi jihozlangan o'quv laboratoriysi, o'quv maydonlarini albatta tashkil qilinishi nazarda tutiladi. Ta'lim oluvchilar bu erda ish o'rmini oqilona tashkil qila bilish malakalarni egallaydilar, ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan mexanizmlar, jihozlar, asbob-uskunalar bilan tanishadilar, operatsiyalar va ishlar kompleksini texnologik tartibda bajarishning mehnat usullarini, ishlab chiqarish madaniyatini egallaydilar, o'quv vaqtidan oqilona foydalanishni, xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish va texnologik intizom talablariga roiya qilishni o'rganadilar.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanishida fanlar bo'yicha mustaqil ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv malakalari, o'quv materialini qabul qilish, qayta ishlash, uning muhim jihatlarini ajratish, yangi o'zlashtirgan bilimlarni avvalgilari bilan bog'lash, o'quv bilimlarini umumlashtirish, takrorlash va ularni amalda tadbiq qilgan holda masalalar hal qilishlarning barchasi mustaqil ta'lim jaryonida egallanadi. Shunday qilib, o'quv malakalari talabalarning mustaqil ta'lim jarayonidagi barcha o'quv-bilish faoliyatlarini bilan bog'liq bo'ladi. Talabalarning fandan mustaqil bilim olishlari jarayonida birinchi navbatda mustaqil ishslash malakasi talab etiladi. Bunday malaka o'quv materiallari bilan mustaqil ishslash jarayonida hosil bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'quv malakalari o'quv materialini qabul qilish, qayta ishlash, uning muhim jihatlarini ajratish, yangi o'zlashtirgan bilimlarni avvalgilari bilan bog'lash, o'quv bilimlarini umumlashtirish, takrorlash va ularni amalda tadbiq qilgan holda masalalar hal qilishda egallanadi.

"Mustaqil ta'lim" tushunchasi pedagogik lug'atlarda o'quv yurtidan tashqari, mustaqil o'rganish tufayli egallanadigan ta'lim turidir, deb ta'riflangan. Ayni vaqtida "mustaqil ta'lim olish", "o'zini tarbiyalash", "mustaqil o'qish" tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda. Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif berilgan: mustaqil ta'lim – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Maxmudova, N. (2018). THE ROLE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-2

- THE INNOVATIVE TRAINING PROCESS. Экономика и социум, (3 (46)), 34-36.
2. Hikmatovna, M. N. (2023). Goals and Tasks of Education. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 360-362.
3. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.
4. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 386-388.
5. Mahmudova, N. H. (2023). Influence of family environment on personal socialization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 440-446.
6. Nigora Hikmatovna Mahmudova. (2023). BASIC TASKS OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" IN PRIMARY GRADES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 447-452.
7. Hikmatovna, M. N. (2024). Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekti va subyekti sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 31-43.
8. Sobirovna, S. Y. (2023). O 'YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 93-99.
9. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(2), 87-92.
10. Yulduz, S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 124-129.
11. Sobirovna, S. Y. (2022). PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 219-220.
12. Sobirovna, S. Y. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O 'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 158-160.
13. Sobirovna, Y. S. (2023). Methods and Tools of Economic Education in Preschool Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 109-115.
14. Sobirovna, S. Y. (2023). METODIST FAOLIYATI ASOSLARI. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(5), 108-114.
15. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 361-367.
16. Sidiqova Yulduz. (2024). SYUJETLI-ROLLI O'YINLARNING BOLA FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 44-51.
17. Sidiqova Yulduz Sobirovna. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ, MULOQOT O'QISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 52-62.
18. Sobirovna, S. Y. (2024). AESTHETIC EDUCATION AS A TOOL TO LEAD

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-2

CHILDREN TO PERFECTION. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 354-367.

19. Yulduz, S. (2024). Estetik tarbiya bolalarni komillikka yetaklovchi vosita sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(2), 95-106.
20. Isomova, FATQ (2022). THE IMPORTANCE OF SPEECH DEVELOPMENT ACTIVITIES IN PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.
21. G'aniyevna, P. R. F. (2022, June). MAK TABGA TAYYORLOV GURUHLARI UCHUN SAVODXONLIKKA O'RGATISH MASHG'ULOTLARIDA, A''HARFTOVUSHINI O'RGATISH METODIKASI. In E Conference Zone (pp. 38-41).
22. O'ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O 'YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.
23. Oktam's, S. M. (2023). Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 104-108.
24. O'ktam qizi Shukurova, M. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 357-360.
25. O'ktam qizi Shukurova, M. (2023). The importance of genres of folklore in the education of preschool children. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 96-99.
26. Shukurova, M. (2023). METHODS AND METHODS OF INCREASING CHILDREN'S SPEECH IN A PRESCHOOL ORGANIZATION. Modern Science and Research, 2(10), 477–480.
27. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(6), 47-51.
28. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 277-284.
29. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res*, 65(1), 2719-2722.
30. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск)*, (23), 127-130.
31. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 277-284.
32. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(6), 47-51.
33. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang 'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloyeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-2

34. Xayrullayevich, S. H. (2023). SPORT GIMNASTIKASIDA HARAKATLAR KETMA-KELIGINING NAMOYON BO'LISHI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 478-491.
35. Xayrullayevich, S. H. (2023). Use of Acrobatic Exercises and Their Terms In The Process of Teaching Gymnastics. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 80-86.
36. Xayrullayevich, S. H. (2023). АЭРОБНОЙ ГИМНАСТИКИ. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 449-456.
37. Xayrullayevich, S. H. (2023). SPORTS ARE GYMNASTICS IN ACTION SERIES-BE THE MANIFESTATION OF COME. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 465-477.
38. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lif nazariyasi kafedrasи mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).
39. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2024). PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND THEIR ORGANIZATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 125–129.
40. Madina O'ktamovna Shukurova. (2024). " Growing children's speech in the process of introducing them to the environment and nature ". Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 130–135.
41. Ситора Икромова Акбаровна. (2024). РАЗВИТИЕ СОЗНАНИЯ И ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ПОНЯТИЯМ БЕССОЗНАТЕЛЬНОГО. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 157–163.
42. Mahmudova Nigora Hikmatovna. (2024). INFLUENCE OF FAMILY ENVIRONMENT ON PERSONAL SOCIALIZATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 164–170.
43. Ниёзова, Д. Б., Кодирова, Н. К., Курбанова, Л. М., Акбаров, Х. И., & Каттаев, Н. Т. (2019). Синтез и физико-химические свойства хитозан-кремнеземных нанокомпозиционных материалов. Universum: химия и биология, (6 (60)), 68-72.
44. Toshboyeva, S. Q., Hamidov, S. X., & Qurbanova, L. M. (2021). Elektrolitik dissotsiyalanish nazariyasini o'qitishni AKT asosida takomillashtirish. Science and Education, 2(3), 357-361.
45. Ayubovna, S. M. (2023). Physical downloads and the rest of fulfilling exercise mutual dependence. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 394-409.
46. Ayubovna, S. M. (2023). Physical downloads and the rest of fulfilling exercise mutual dependence. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 394-409.
47. Ayubovna, S. M. (2023). Jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishi va jismoniy sifatlarning ko'chishi. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 379-393.
48. Qurbanova, L. M., & Qurbanova, D. N. (2021). ZOMIN SHIFOBAXSH O'SIMLIKLARING HUSUSIYATLARI. Журнал естественных наук, 1(3).
49. Qurbanova, L. M., Mullajonova, Z. S., & Toshboyeva, S. K. (2021). "NEFTNI QAYTA ISHLASH" MAVZUSINI OQITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Science and Education, 2(3), 362-366.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-2

50. Erkinovich, X. Z., Murodullaevna, K. L., Mamadievich, R. Z., Mamirkulovich, M. Z., Xidirovna, L. Z., Oblakulovich, K. S., & Axmadjonovich, S. S. (2021). Improving the Surgical Treatment of Patients with a Biliary Disease Complicated by Mirizzi Syndrome. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 14697-14702.
51. Курбанова, Л. М., Хидиров, З. Э., & Абдураимов, З. А. (2021). КЛИНИКО-ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ БРУЦЕЛЛЕЗА В ВОЗРАСТНОМ АСПЕКТЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. Достижения науки и образования, (1 (73)), 61-68.
52. Qurbanova, L. M., & Toshboyeva, S. K. (2021). KIMYOVIY TAJRIBALAR-O'QUVCHILARNING KIMYODAN TAYYORGARLIK DARAJASINI OSHIRISHDA MUHIM OMIL. Журнал естественных наук, 1(3).
53. Qurbanova, L. M., & Qarshiboyev, B. I. (2021). NAVBAHOR GILLARINING GLITSERIN BILAN MODIFIKASIYALANGAN YUQORI GIDROLIZLANGAN POLIAKRILONITRIL (RS-2-3) ASOSIDA FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINI O'RGANISH. Журнал естественных наук, 1(3).
54. Uktamovich, K. E., Oblakulovich, K. S., Murodullaevna, K. L., Hidirovna, L. Z., & Aslamovna, K. G. (2021). Effects of cellular cord blood on skin pathology in laboratory animals. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 2(1), 116-122.
55. Qurbanova, L. M. (2021). PISA XALQARO BAHOLASH DASTURINING AMALIY AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1497-1500.
56. Narzullaevna, K. S., Esirgapovich, K. A., Xalimovich, J. M., Murodillaevna, B. R. S. K. L., Solijonovna, U. O., & Naimovich, B. B. (2021). What is Ecology?. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3341-3345.
57. Qurbanova, L. M., & Suhanbarov, A. M. O. G. L. (2021). ZAMONAVIY TA'LIMGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1132-1135.
58. Ro'ziyeva, M. Y., & Azamova, N. U. B. (2024). BADIY ADABIYOTDA MAKON VA ZAMON TUSHUNCHASI VAULARNING KELIB CHIQISHI. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 2(2), 22-26.
59. Ruzieva, M. Y. (2016). EXPRESSION OF ATTITUDE TO COLORS IN TURKIC NATIONAL RITUAL SONGS. *Социосфера*, (4), 50-55.
60. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lism nazariyasi kafedrasi mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).
61. Рўзиева, М. й. (2020). ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР ФОЛЬКЛОРИДА РАНГ ИФОДАЛОВЧИ СЎЗЛАР ВА УЛАРНИНГ СЕМИОТИК ТАҲЛИЛИ. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1).
62. Рузиева, М. Я. (2019). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЖАНРОВ ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ. *ББК 71.0 И74 Редакционная коллегия Ответственный редактор*, 46.